
«UCh AVLOD UCHRASHUVI» TADBIRI BO‘LIB O‘TDI

Kuni-kecha Toshloq tumani tibbiyot birlashmasi va kasaba uyushmasi qo‘mitasi tomonidan Quvasoy shahrida joylashgan Ahmad al-Farg‘oniy dam olish uyida 9-may "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan tadbir tashkil etildi.

Tadbirda halqimiz sog‘ligini tiklash, yurt ravnaqi, tinchligi, yosh avlodga ta‘lim-tarbiyasi yo‘lida fidokorona mehnat qilgan keksalar, o‘rta avlod vakillari hamda yoshlar taklif etildi. Uch avlod vakillari bir dasturxon atrofida o‘tirib, fikr almashishdi. Keksalarning o‘g‘itlari yoshlarni chuqur bilim olishga, doim yaxshilik qilishga, yaxshi inson bo‘lishga ilhomlantirdi.

Tadbir yakunida faxriylarga tuman tibbiyot birlashmasi kasaba uyushma qo‘mitasining tashakkurnomasi hamda esdalik sovg‘alari topshirildi.

2023-05-08 17:46:04